

bo'lib, ular o'rtasida muvozanatli rivojlanish zarur. Rivojlanayotgan bozorlar sharoitida muomala xarakteri bo'yicha segmentlarning to'liq va samarali ishlashi uchun quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- ikkilamchi bozor likvidligini oshirish;
- axborot oshkoraligini kuchaytirish va yagona ma'lumot bazasini shakllantirish;
- institutsional investorlar ulushini kengaytirish;
- chakana investorlar moliyaviy savodxonligini oshirish;
- raqamli savdo infratuzilmasini takomillashtirish.

Umuman olganda, qimmatli qog'ozlar bozorining muomala xarakteri bo'yicha to'g'ri tashkil etilishi kapitalning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi, investitsion faollikni oshiradi va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Bozor segmentlari o'rtasidagi uzviylik, shaffoflik va likvidlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, moliya tizimining barqarorligi ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Ilmiy jihatdan qaraganda, mazkur tasnif nafaqat tashkiliy ajratish vositasi, balki bozor samaradorligini baholash mezonini ham hisoblanadi. Muomala xarakteri bo'yicha segmentlar o'rtasidagi nisbat va faoliyat darajasi mamlakat moliya bozorining rivojlanish bosqichini aniqlash imkonini beradi. Shuning uchun ushbu yo'nalishda chuqur institutsional islohotlar va infratuzilmani rivojlantirish kelgusida kapital bozorining barqaror va raqobatbardosh tizimga aylanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 03.06.2015 yildagi O'RQ-387-son
2. S.E.Elmirzayev va boshqalar Moliya bozori. Darslik. – Toshkent "Iqtisod-Moliya" - 2019
3. <https://new.openinfo.uz/home>
4. <https://finviz.com/quote.ashx?t=AGIO&p=d>
5. <https://finance.yahoo.com/quote/AGIO/>
6. app.jett.uz
7. tradingview.com

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY QARASHLARI

O'ramov Jaxongir Jurayevich

Qarshi davlat texnika universiteti

Moliya va bank ishi kafedrasi v.b dotsenti

Annotatsiya. Tezisdan raqamli iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonlari sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash va

prognozlashning uslubiy yondashuvlari tahlil qilingan, raqamli investitsion faollik ko'rsatkichi kiritilgan moliyaviy barqarorlikning ko'p omilli integral indeksi ishlab chiqilgan. Panel ma'lumotlari asosida qurilgan ekonometrik model moliyaviy samaradorlik va raqamli transformatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini bergan.

Kalit so'zlar: moliyaviy barqarorlik, sanoat korxonasi, raqamli transformatsiya, ekonometrik modellashtirish, integral gibrid model.

Bugungi kunda sanoat korxonalari raqamli texnologiyalar ta'sirida faoliyat yuritayotgan sharoitda ishlab chiqarish jarayonlari raqamlashtirilmogda, xarajatlar tuzilmasi o'zgarib bormogda, moliyaviy risklar murakkablashmogda, investitsiya sohasida o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Shu sababli moliyaviy barqarorlikni an'anaviy moliyaviy tahlil usullari bilan baholash yetarli bo'lmay, ekonometrik modellashtirish asosida raqamli omillarni inobatga olgan kompleks baholash dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylanmogda. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun raqamli transformatsiyaning moliyaviy natijalarga ta'sirini aniqlash zarurati ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi va o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash, hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ekonometrik modellar yordamida moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, boshqaruv qarorlarining aniqligi va samaradorligi oshiriladi.

Jahonda "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi birinchi marta 1990-yillarda kiritilgan bo'lib, iqtisodiy jarayonlarning raqamli texnologiyalar asosida transformatsiyalashuvi korxonalarni boshqarish, moliyaviy oqimlar va biznes modellarida tub o'zgarishlarga⁹³ olib kelishini ta'kidlab, bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan ta'riflangan va kamaytirish usullari ko'rsatilgan. **Moliyaviy barqarorlik tushunchasining nazariy asoslarini tizimlashtirish**, iqtisodiy nazariyada korxonaning faoliyatining uzluksizligi, moliyaviy xavfsizligi va rivojlanish qobiliyatini ifodalovchi asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligini raqamli iqtisodiyot sharoitida baholashda yagona universal model mavjud emas, lekin ilmiy adabiyotlarda korxonalar moliyaviy holatini prognozlashda keng qo'llaniladigan modellardan biri — Edward Altman tomonidan ishlab chiqilgan Z-score modelidir⁹⁴. Mazkur model moliyaviy koeffitsientlar asosida korxonaning bankrotlik ehtimolini aniqlash imkonini beradi.

⁹³ Negroponte N. Being Digital. – New York: Knopf, 1995. – 243 p. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1996. – 342 p.

⁹⁴ Altman E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23. – No. 4. – P. 589–609.

Tadqiqotimizda yakuniy gibril moliyaviy barqarorlik indeksidan foydalanilgan. Biz taklif etiladigan integral model:

$$FSI = \lambda Z_d + (1 - \lambda)(1 - P(\text{Default}))$$

Бу ерда:

- FSI — Financial Stability Index
- λ — 0.4–0.6 оралиғида танланади
- $1 - P(\text{Default})$ → барқарорлик эҳтимоли

Biroq, yakuniy gibril moliyaviy barqarorlik indeksi (FSI) — bu faqat raqam emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish instrumenti hisoblanadi. U an'anaviy Edward Altman Z-score modeli va Machine Learning prognozini birlashtirgani uchun korxonalar barqarorligiga quyidagi natijalarga erishiladi: Erta ogohlantirishga (Early Warning Effect) yani moliyaviy xavfdan himoya qiladi, strategik barqarorlikni kuchaytirishga va strategik qarorlarni asoslashga, resurslarni optimal taqsimlashga, raqamli transformatsiya samarasini ko'rsatadi va baholaydi.

Integral gibril model korxonani quyidagi uzoq muddatli barqaror rivojlanishga olib keladi va eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Umuman olganda, natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi faqat moliyaviy ko'rsatkichlar yig'indisi emas, balki **raqamli texnologiyalar, axborot oqimlari va boshqaruv qarorlarining samaradorligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab iqtisodiy tizim** sifatida namoyon bo'lishi, moliyaviy barqarorlikning iqtisodiy mohiyati **rentabellik, likvidlik, moliyaviy mustaqillik, pul oqimlari va risklar** o'rtasidagi dinamik muvozanat orqali shakllanishi kasb etishi ko'rsatib berildi.

Ushbu tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda raqamli transformatsiya, texnologik yangilanish va axborot oqimlari samaradorligi orqali shakllanishi, likvidlik, rentabellik, moliyaviy mustaqillik va xatarlarni boshqarish kabi elementlarning dinamik o'zaro bog'liqligini aniqlash mumkinligi hisobga olib ilmiy asoslarda tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Altman E. I. *Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy* // *Journal of Finance*. – 1968. – Vol. 23. – No. 4. – P. 589–609.
2. Negroponte N. *Being Digital*. – New York: Knopf, 1995. – 243 p.
3. Tapscott D. *The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. – New York: McGraw-Hill, 1996. – 342 p.

4. Орлова И.В. *Экономико-математические методы и модели. Практикум: Учеб. пособие для вузов.* - М.: Финстатинформ, 2000. - 304.

5. Орлов А.И. *Устойчивость в социально-экономических моделях.* - М.: Наука, 2001. - 296 с.

6. Алимханова Н. А. *THEORETICAL FOUNDATIONS OF INVENTORY AUDIT.* – 2025.

7. Алимханова, Нигора Алимхановна. *"THEORETICAL FOUNDATIONS OF INVENTORY AUDIT."* (2025).

КОРХОНАЛАРДА ҚАРЗ МАБЛАҒЛАРИНИ ЖАЛБ ЭТИШНИНГ ТАШКИЛИЙ ЖИХАТЛАРИ

Жумаев Самариддин Зиядуллаевич

Термиз давлат университети мустақил изланувчиси

Ҳозирги глобал иқтисодиёт шароитида фақатгина ўзини ўзи молиялаштириш орқали фаолиятни юритиш ва уни ташкил этиш кескин рақобат муҳитида корпоратив тузилмалар муваффақиятини ҳар доим ҳам кафолатламайди. Шунинг учун ҳам иқтисодий-ижтимоий шарт-шароитдан келиб чиқиб, ташқи ва ички қарз маблағларини жалб этиш орқали молиялаштириш амалиётига мурожаат қилишга ҳам тўғри келади.

Қарз маблағларини жалб қилишдан асосий мақсадлар сифатида фаолиятни кенгайтириш, модернизация қилиш, фаолият билан боғлиқ технологияларни янгилаш ҳамда айланма маблағларни тўлдириш кабиларни келтириш мумкин.

Қарз орқали молиялаштириш корпоратив молиялаштириш тизимида муҳим ўрин тутаяди. Корхоналарнинг молиявий эҳтиёжларини қондиришда қарз ресурслари ўзининг қулайликлари билан ажралиб туради. Бунда қарз турлари (қисқа муддатли, ўрта муддатли ва узоқ муддатли), уларнинг манбалари (банк кредитлари, облигациялар, лизинг ва ҳ.к.) ва уларнинг молиявий стратегиядаги ўрни ўрганилади.

Корхоналарда қарз маблағларини жалб этиш жараёнида молиявий режалаштириш, кредит лаёқатини баҳолаш, капитал тузилмасини оптималлаштириш, қарз шартномаларини тузиш ва назорат қилиш каби муҳим ташкил этиш жараёнларини амалга оширади.

Қарз орқали молиялаштириш компанияга тезроқ ривожланишга имконият яратибгина қолмай, солиқ юкларини камайтиради, аммо қарзнинг ортиши молиявий хавфларни оширади ва кредит рейтингига салбий таъсир кўрсатади.